

**O‘ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDA IQTISODIYOT
SOHASIGA DOIR YANGI LEKSIKANING QO‘LLANILISHI**

O‘razboyev Olimjon Rustam o‘g‘li

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq

davlat universiteti magistranti

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi iqtisodiyot sohasiga doir yangi o‘zlashma leksik birliklar va ularning ijtimoiy sohada qo‘llanilishi bilan bog‘liq ayrim mulohazalar bayon qilingan.*

***Kalit so‘zlar:** O‘zbek, qoraqalpoq, leksik birlik, termin, lug‘at, harbiy soha, avtopark, smoking, spiker, moderator, brifing, matbuot anjumani, ko‘chma qabullov.*

***Annotation:** In this article, some considerations related to the newly acquired lexical units related to the economic sphere in the Uzbek and Karakalpak languages and their use in the social sphere are described.*

***Key words:** Uzbek, Karakalpak, lexical unit, term, dictionary, military field, car park, tuxedo, speaker, moderator, briefing, press conference, mobile reception.*

***Аннотация:** В данной статье изложены некоторые соображения, связанные с вновь приобретенными лексическими единицами, связанными с экономикой, в узбекском и каракалпакском языках и их использованием в социальной сфере.*

***Ключевые слова:** узбекский, каракалпакский, лексическая единица, термин, словарь, военное поле, автостоянка, смокинг, докладчик, модератор, брифинг, пресс-конференция, мобильная приемная.*

Ma'lumki, har bir til o‘z lug‘at boyligiga ega bo‘lar ekan, o‘zining ichki qonuniyatlari asosida doimiy ravishda rivojlanib boradi. Shuningdek, jamiyatda bo‘ladigan o‘zgarishlarga mos ravishda, o‘z tiliga ega bo‘lgan xalq til

birliklarining o'zga xalqlar bilan siyosiy, ma'naviy, madaniy, iqtisodiy aloqalari natijasida ham boshqasiga o'tib borishi kuzatiladi. Bu holat manbalarda o'z qatlam va o'zlashgan qatlam guruhi sifatida tasniflanadi.

O'zbek va qoraqalpoq tillari lug'at boyligining katta qismi umumturkiy leksemalar bo'lib, ularni o'zlashma qatlam leksemalaridan farqlashning o'ziga xos belgilari ham mavjud.

O'zbek va qoraqalpoq tiliga sohalarga doir o'zlashgan zamonaviy so'zlar hozircha tilshunoslikda maxsus tadqiq etilgani yo'q. Tilimizga o'zlashgan bunday terminlarni quyidagicha sohalarga doir guruhlariga ajratish mumkin:

1. O'qitish va ta'lim bilan bog'liq o'zlashgan so'zlar guruhi: *reyting, onlayn ta'lim, HEMIS, platforma, raqamli texnologiya, zoom, Quiz test, multimedia* kabilar.
2. Tibbiyot va veterinariyaga oid so'zlar guruhi: *pandemiya, koronavirus, COVID, vaksinatsiya* kabilar.
3. Dengizchilik va kemasozlikka oid so'zlar guruhi: *yaxta, kater, tanker, trauler, tramp, bosman* kabilar.
4. Transportga oid so'z va iboralar guruhi: *elektromobil, mikroavtobus, skuter, alkantara, LED chiroq, tonirovka, avtomaktab, aerobus, layner* va boshqalar.
5. Sanoat va qurilishga oid so'zlar guruhi: *city, hotel, hostel, trest, konsern, konveyer* kabilar.
6. Harbiy soha va texnikaga oid so'zlar guruhi: *harbiy dron, ballistik raketa, multiradar, bodykamera, sun'iy intellekt* kabilar.
7. O'rin-joy va makon bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi so'zlar guruhi: *park, skver, city, tungi klub, avtopark, bolalar maydonchasi* kabilar.
8. Sport sohasi bilan bog'liq so'z va atamalar guruhi: *VAR, videotakror, UFC, oktagon, match, golkiper, armrestling, bodybuilding, fitness, ring* kabilar.
9. San'at, o'yin, hordiq chiqarish, musiqaga oid so'z va atamalar guruhi: *fashion week (modalar haftaligi), galakonsert, duet, klip, shou, ball, piknik* kabilar.

10. Ijtimoiy-siyosiy sohaga oid soʻzlar guruhi: *press-konferensiya, kongressmen, spiker, moderator, brifing, matbuot anjumani, koʻchma qabullov, videoselektor* kabilar.

11. Texnikaga oid tushunchalarni ifodalovchi soʻzlar guruhi: *chip, sim karta, plastik karta, robototexnika, nanotexnologiya, videoregistrator, magicar* kabilar.

12. Kompyuter texnologiyasiga oid soʻz va atamalar guruhi: *fayl, hub, printer, kserokopiya, skaner, planshet, naushnik (quloqchin), diskovod* kabilar.

13. Kiyim-kechak, mato va pardoz buyumlarini ifodalovchi soʻzlar guruhi: *jinsi, pidjak, smoking, fen, mushkanbar, kosmetika, pedikur, menikur*, kabilar.

14. Kulinariya va ichimlik nomlarini ifodalovchi soʻzlar guruhi: *viski, brendi, kokteyl, moxito, fresh, energetik ichimliklar* kabilar.

15. Turli kasb va toifadagi kishilarni ifodalovchi soʻz va atamalar guruhi: *menejer, investor, dizayner, broker, frilanser, makler, bloger, vayner, marketolog* kabilar.

16. Iqtisodiyot sohasiga doir tushunchalarni ifodalovchi soʻzlar guruhi: *investitsiya, eksport, marketing, barter, import, kredit, mikroqarz, subsidiya* kabilar.

Bunday mavzuiy guruhlarini yana davom ettirish mumkin. Eng muhimi, tilimiz lugʻaviy qatlamidan mustahkam oʻrin olayotgan ana shunday inglizcha, fransuzcha, ruscha, italyanacha, nemischa, ispancha oʻzlashma soʻzlarni toʻplash, ularning keyinchalik alohida-alohida, umumiy izohli lugʻatini yaratish, bunday oʻzlashmalarning imlosi, transliteratsiyasi muammolari bilan jiddiy shugʻullanish hozirgi oʻzbek va qoraqalpoq tilshunosligining dolzarb muammolari hisoblanadi.

Mustaqillikdan soʻng iqtisodiyot sohasida oʻzbek tili bazasida darslik, qoʻllanma va lugʻatlar yarata oladigan, soha terminlarini tartibga solish bilan shugʻullana oladigan mahalliy kadrlarni yetishtirish muhim vazifa boʻlib qoldi. Bir qator chora-tadbirlar tufayli Oʻzbekistonda iqtisod fani va iqtisodiyot terminologiyasini tartibga solish, iqtisod fanini oʻqitish sifatini oshirish imkoniyati yaratildi. Natijada iqtisodiyot yoʻnalishidagi taʼlim muassasalari

uchun tarjima darsliklari bilan bir qatorda o'zbek mualliflari mustaqil ravishda yaratgan iqtisod darsliklari, qo'llanmalari hamda bir qator terminologik lug'atlar yuzaga keldi.

Bu darslik va lug'atlar o'zbek iqtisodiyot terminologiyasini tartibga solish hamda uning yanada rivojlanishi uchun asosiy manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Hozirgi davr bozor iqtisodiyoti o'zbek tili iqtisodiyot terminologiyasining muayyan taraqqiyoti va takomillashuviga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Ma'lumki, dunyoning aksariyat mamlakatlarida bozor iqtisodiyoti asosida ish yuritiladi. Bozor hamma joyda sotuvchi bilan xaridor o'rtasidagi munosabatlarni yuzaga chiqaruvchi makondir. Bozor hozirgi davrda erkin iqtisodiyot degan tushunchani anglatadi. Darhaqiqat, iqtisodiyot taraqqiyotida ixtiyoriylik bo'lmasa, uning obyektivligi yo'qoladi. Erkin iqtisodiyotda esa raqobat hukmronligi mustahkamlanib boradi. O'zbekiston bozor iqtisodiyoti tomon ilk qadam qo'ydi va bozor iqtisodiyotiga o'tish davriga kirib bormoqda.

Bozor iqtisodiyoti islohotlar tufayli o'ziga yo'l ochayapti. Iqtisodchilar, olimlar va mutaxassislar bozor munosabati masalalarini sinchkovlik va qiziqish bilan o'rganmoqdalar: turli monografiya va risolalar, darsliklar, o'quv qo'llanmalari, lug'atlar yangidan yaratildi va yozilmoqda.

Hozirgi davr o'zbek iqtisodiyoti terminologiyasi muayyan taraqqiyot va takomillashuv yo'lini bosib o'tayotgan bo'lishiga qaramay, unda hamon hal qilinmagan bir qator masalalar bor.

Terminologiya sohasidagi sinonimiya, ayrim terminlar qo'llanishdagi har xilliklar, imloviy qoidalarga rioya qilmaslik, iqtisodiyot yo'nalishlari bo'yicha lug'atlar yaratilmaganligi ana shu hal etilmayotgan masalalar qatoriga kiradi.

Terminologik tizimlarning shakllanishi va qaror topishi sohasidagi kuzatishlardan shunday holat ayon bo'ladiki, o'zbek iqtisodiyot terminologiyasi ham, asosan, ikki manba: o'zbek tilining ichki imkoniyatlari va xorijiy tillar unsurlari (so'z va so'z birikmalari) asosida rivojlanib va boyib borgan. Bu manbaning birinchisi asli o'zbekcha (ba'zilar umumturkiy) tub leksik qatlam, o'zbek tilida qadimda iste'molda bo'lgan yoki iqtisod sohasida yangi

tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qilgan lugʻaviy birliklar hamda ular asosida ona tilining soʻz yasovchi vositalari bilan yangidan hosil qilingan terminlar hisoblanadi. Ikkinchisi, oʻzga tillar, aniqrogʻi, fors-tojik, arab va rus tilidan oʻzlashtirilgan qatlamdir.

Iqtisodiyot terminologiyasining yuzaga kelish va taraqqiyot bosqichlarini, uning oʻziga xos xususiyatlarining tahlili shuni koʻrsatadiki, oʻzbek va qoraqalpoq tillarida iqtisodiy terminlar quyidagicha shakllanmoqda:

1. Oʻzbek va qoraqalpoq tilida iqtisodga oid tushunchalarni aniq ifodalovchi qator leksemalar qadim-qadimdan qoʻllab kelinmoqda. Ikki adabiy tili boyligining bir qismi oʻlaroq, bunday soʻzlar keyinroq, aniq terminologik tizim vujudga kela boshlashi bilan iqtisod fanining maxsus tushunchalarini ifodalash uchun jalb qilina boshladi: *haq, bitim, pay, garov, dallol, pul, soʻm (swm), sugʻurta, savdo, omonat, gʻamlama* va boshqalar.

2. Iqtisodiyot bilan aloqasi boʻlmagan, boshqa-boshqa sohalarda qoʻllanadigan terminlar ham xoslashtirilmoqda, yaʼni iqtisodiy terminlar sifatida ishlatilmoqda: *taklif, sohibkor, oʻsim, qoldiq, daraja, palata, kadrli, yetakchi, yigʻim, qaydnoma, baho, xoʻjalik*. Semantik-sintaktik usulda soʻz yasalishi natijasida boshqa sohalarga tegishli soʻzlar iqtisodiyot terminologiyasining mulkiga aylanmoqda: *daromadning qoldigʻi, bozor hajmi, foyda miqdori, qiymat soligʻi, kreditning elastikligi, talabning egiluvchanligi, oʻzgaruvchan narx, pul massasi, pul undirish, iqtisodiy oʻsish, yetakchi valyuta, oʻrinbosar tovarlar, oʻrmalovchi inflyatsiya*.

Demak, yuzlab leksemalar iqtisodiy terminologik tizimda yakka holda ham, soʻz birikmalarining tarkibiy qismlari sifatida ham ushbu soha terminlari sifatida qoʻllanilayapti.

3. Iqtisodiyot terminologiyasining boyishidagi yana bir manba, bu iqtisodiy tushunchalarni ifodalash uchun xilma-xil affikslar ishtirokida hosil qilingan yasama lugʻaviy birliklar hisoblanadi: *ijarachi, nazoratchi, moliyachi, iqtisodchi, isteʼmolchi, jamgʻarma, uyushma, ustama, undirma, tejamkor, tadbirkor, iqtisodiyot, hisobot, raqobat, taʼminot, bojxona, zarbxona, qarzdor, sarmoyador,*

mulkdor, xaridor, hissador, shartnoma, omonatnoma, so‘rovnoma, boylik, rentabellik, bebaho, befoyda, merosxo‘r, sudxo‘r, kirim, chiqim, bitim, to‘lov, o‘lchov, mulkchilik, tejamkorlik, unumlilik, aksiyadorlik.

4. Hozirgi o‘zbek tili lug‘at tarkibida, uning iqtisodiy terminlar tizimida yuqoridagidek umumturkiy, o‘zbek terminlari bilan bir qatorda fors-tojikcha, arabcha leksemalar ham qo‘llanib kelinmoqda: *sarmoya, davlat, tijorat, tojir, maosh, mablag‘, sarkor, daromad, dastmoya, manfaat.*

5. O‘zbek tili iqtisodiyot terminologiyasi ruscha-baynalmilal terminlar hisobiga ham boyib bormoqda: *avans, aktiv, aktsiz, byudjet, birja, buxgalter, bank, balans, biznes, veksel, valyuta, debitor, demping, dotatsiya, diler, zalm, kredit, kassir, litsenziya, lizing, menejment, saldo, tarif* va boshqalar.

Ba‘zi ruscha-baynalmilal iqtisodiy terminlar o‘zbek tiliga tarjima qilindi yoki muqobil varianti qo‘llanilmoqda: *auksion - kimoshdi savdosi, barter - ayirboshlash, brakeraj - saralash, garant - kafil, defitsit - taqchilik, dolya - hissa, kapital - sarmoya, makler - dallol, oborot - aylanma, ssuda- qarz, schet - hisob.*

Terminlarning bir qismi tegishli ruscha-baynalmilal muqobillarining o‘zbek tilidagi kalkasi sifatida yuzaga kelgan.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek va qoraqalpoq iqtisodiyot terminologiyasi mustaqillikdan so‘ng yangi bosqichga ko‘tarildi va har lahzada yangi-yangi terminlar yuzaga kelmoqda. Tilshunoslikda terminlarni tartibga solish masalasi har doim ham dolzarb bo‘lib kelgan va bugun ham bu masala o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. O‘zbek va qoraqalpoq tilshunosligida sohaviy terminologiyalarni tartibga solish masalasida bir qancha ishlar amalga oshirilgan. Lekin qilingan ishlarning salmog‘i bilan chegaralanib xulosa chiqarib bo‘lmaydi. Chunki terminlarni tartibga solish masalasini barcha soha terminologiyalarida ham bir xilda olib borilyapti, deb bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Madvaliyev. O‘zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, T.: 2017.

2. H. Dadaboyev. O‘zbek terminologiyasi. . “Nodirabegim”, T.: 2020.
3. Н.А.Баскаков.Каракалпакский язык. 4 том Лексика. “Билим”,Нукус.– 1996 г.
4. Xudayberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. Monografiya. – Toshkent: Fan. 2013.
5. О. Доспанов. Қарақалпақ тили қубла диалектинің лексикаси. “Қарақалпақстан”, 1977.
6. О. Бекбаўлов. Қарақалпақ тилиндеги озлестирме созлердин қолланылыўы. – Қарақалпақ тили бойынша изертлеўлер. – Нөкис: “Қарақалпақстан”, 1971.